



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

Ўзбекистон худудида

тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova Boshqaruv samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy asoslari	150
Askar Axrorovich Siddikov, Islomjon Umrzoq o‘g‘li Yovqochov Yashil mehmonxona va restoranlar: ekologik boshqaruv va barqarorlik	154
ИНВЕСТИЦИЯ	
Шохида Ильясовна Артикова, Дилноза Наврузовна Султонова Реальные инвестиции как фактор повышения развития экономики страны	157
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Xurshida Abdumalikovna Karjavova Sug‘urta xizmatlari bozorini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari	161
Alisher Komilovich Baxadirov O‘zbekistonda lizing oluvchilarni ijara muomalalari hisobining amaldagi holatini barqarorlashtirish yo‘llari	167
Faridun Mustafoyevich Tursunov Tijorat banklarida innovatsion masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning ahamiyatli jihatlari	172
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Мамаюнус Каршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусова Пардаева, Севара Абдиназаровна Бабаназарова Инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили) фанининг вазифаларига оид фикрлар	177
Tolmasjon Namoz o‘g‘li Qurbonov “Yashil iqtisodiyot”ning iqtisodiy samaradorligini baholash tahlili	182
Otabek Olimjonovich Sobirov Boshqaruv hisobida sifat nazoratini tashkil etish va takomillashtirish	190
Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова Корхоналарда даромад ва харажатлар таснифини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш	192
Sirojiddin Haydarovich Shermamatov Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini tashkil etishning muammo va istiqbollari	200
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Азимжон Фаррухович Мустафоев Нодавлат таълим ташкилотларида моддий харажатлар ҳисобини такомиллаштириш	205
To‘lqin Mardiyev, Azizbek Gafurov Qardosh bo‘lmagan tillarda iqtisodiy idioma va frazeologiyalarning leksik-semantik xususiyatlari	212
Хилола Нематовна Очилова Камбағалликни қисқартиришда олий таълим муассасаларининг ўрни ва аҳамияти	215
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Каршибаевич Пардаев 1. Энг зарур тиббий ўғитлар. 2. Онкологлар энди мени кечиришмайди. бутун дунё топмаган дардимга, биргина мева даво бўлди!!	219

2. Nobes C. International financial reporting standards and lease accounting: Transparency and comparability. *accounting and business research*. 50(4) 2020 yil 245-260 betlar.
3. Baranov S. Leasing transactions in cis countries: Taxation and accounting aspects. *russian journal of economics*. 7(2), 2021 yil 89-105 betlar.
4. Karimov B. O‘zbekistonda lizing operatsiyalarining kichik biznes rivojlanishiga ta’siri. *Iqtisodiyot va moliya jurnali*. 2020 yil. 112-125 betlar.
5. To‘rayev A. Lizing operatsiyalarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish zarurati. *Buxgalteriya hisobi va audit jurnali* 2021 yil. 78-91 betlar.
6. Ismoilov D. Lizing shartnomalarining huquqiy asoslari va ularni takomillashtirish yo‘llari. *Huquqshunoslik va biznes jurnali*, 2022 yil. 55-68 betlar.
7. Ahmadjonov K. Yakubov I. *Audit asoslari*. -T.: Молия. 2009. -288 б.
8. Адамс Р. Основы аудита. Пер. с англ./под ред. Я.В. Соколова. – М.: ЮНИТИ, 2015. -398 с.
9. Азизов Ш.У., Юлдашева С.Х. *Международный аудит. Учебное пособие*. –Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013. –С-201.
10. Арнс А., Лоббек Дж. *Аудит*. Пер. с англ. под ред. Я.В. Соколова. - -М.: Финансы и статистика, 2013. -560 с.

А.Бахадиров	A.Bakhadirov
Пути стабилизации текущего состояния учета арендных сделок арендаторов в Узбекистане	Ways to stabilize the current status of the account of lease transactions of lessees in Uzbekistan
<p>Аннотация. В данной статье рассмотрено влияние лизинговых операций на бухгалтерский учет и финансовую отчетность в Узбекистане, пути совершенствования и стабилизации системы отчетности лизингополучателей, а также внедрение методов бухгалтерского учета в соответствии с международным опытом и международными стандартами финансовой отчетности.</p> <p>Ключевые слова: лизинг, лизинговые сделки, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, международный опыт МСФО, система отчетности, лизинговые операции.</p>	<p>Abstract. In this article, the impact of leasing operations on accounting and financial reporting in Uzbekistan, ways to improve and stabilize the reporting system of lessees, and the introduction of accounting methods in accordance with international experience and international standards of financial reporting are considered.</p> <p>Keywords: leasing, lease transactions, accounting, financial reporting, international experience of IFRS, reporting system, leasing operations.</p>

Faridun Mustafoyevich Tursunov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘qituvchisi

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATLI JIHLATLARI

<p>Annotatsiya. Ushbu maqolada masofaviy bank xizmatlarining umumiy tushunshasi, ushbu tizim haqidagi ba’ze olimlarning qarashlari, ushbu tizimning banklar faoliyatidagi roli va o‘rni, masofaviy bank xizmatlari tendensiyalarining asosiy yo‘nalishlari, afzalliklari va kamshiliklari, tadqiqot davomida ushbu tizimni rivojlantirish yo‘lida ushraydigan ba’ze muammolar o‘rganilgan va mazkur muammolarni yechimini topish maqsadida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: masofaviy bank xizmatlari, onlayn-banking, internet-banking, mobil-banking, sms-banking, bank-mijoz, dibank, chat-botlar, blokcheyn, raqamli bank.</p>
--

Kirish. Mamlakatimizda kechayotgan raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida, o‘z faoliyatlarini kengaytirish va yangiliklar kiritishga harakat qilishi zarur. Shunday qilib, ular davlat tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion dasturlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Hukumatimiz banklari, davlat tomonidan belgilangan istiqbolli vazifalarini bajarishda o‘zlarining kerakli

resurslari, mablagʻlari va turli xil moliyaviy vositalarini sohaga yoʻnaltiradilar. Bu orqali banklar jamiyatimizning rivojlanishiga oʻzlarining yuksak hissalarini qoʻshadilar. Tijorat banklari davlatning kelajakdagi asosiy tendensiyalar va istiqbollarini amalga oshirishda oʻzlarining asosiy moliyaviy-aktivlarini yoʻnaltiradi. Ushbu jarayonda moliyalashtirishning baʼzi mexanizmlarini yaratish hamda bank xizmatlarini ommabopligini oshirish va aniq choralarni ishlab chiqishi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”¹gi Farmoniga binoan mamlakatimiz bank tizimining samaradorligini oshirish va faoliyati barqarorligini taʼminlash hamda ularning kapital yetarililigini xalqaro andozalarga moslashtirib borish, sohasida qator vazifalarni amalga oshirilishiga sabab boʻldi.

Masofaviy bank tizimlarining dolzarbligi Oʻzbekiston Respublikasida masofaviy bank xizmatlarining jadal rivojlanishi bilan bogʻliq. “Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari kartalardan jadal suratlar bilan foydalanishni boshladilar va kredit tashkilotlari masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishning koʻpayishini qayd etishdi. Masofaviy bank xizmatlari rivojlanishi tufayli fuqarolarning turmush tarzi tubdan oʻzgarib borayotgan jadal transformatsiyalar davrida jismoniy aloqa orqali anʼanaviy bank xizmatlaridan foydalanishga odatlangan va masofaviy bank tizimidan foydalanishdan bosh tortgan konservativ mijozlarga eʼtibor qaratish zarur. Shuning ushun, banklar ushun anʼanaviy mijozlar bilan aloqani saqlab qolish juda muhimdir”². Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu masala doirasida birqancha ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda va raqamlashtirish hamda internet texnologiyalari rivojlanishi bois butunlay klassik bank tizimi yoʻqolmasligini izohlab oʻtdi. Bundan kelib chiqadiki, bank tizimi uchun rivojlanishning yangi istiqbollari, mijozlarga nafaqat yuzma-yuz, balki masofadan turib ham bank xizmatlarini koʻrsatish imkoniyati oshilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mavzuda xorijiy olimlardan Lavrushin O.I.[2], Jarkovskaya e.P.[3], Kornilova Yu.A. [4], Ramayah T.[5], Spilnischenko V.K.[6], Korobova G.G.[7] kabilar ilmiy tadqiqot olib borayotgan boʻlsa, yurtimiz olimlaridan Abdullaeva Sh.Z.[8], Toymuxamedov I.[9], Rahimova X.U.[10], Aliqoriev O.[11], Mamadiyarov Z.T.[12] kabilar mavzuning ahamiyati haqida oʻz tadqiqotlarida keltirib oʻtishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Olib borilgan tadqiqotda keltirilgan maʼlumotlarning aksariyati raqamlarda keltirilganligi tufayli, tadqiqotda keltirilgan tahlillar asosan miqdoriy usullardan, shuningdek, statistik kuzatish uslubi, mutlaq va nisbiy statistik qiymatlar tahlili, dinamika seriyasi tahlilidan foydalanilgan. Mazkur tadqiqotda maʼlumotlarning juda koʻp qismi raqamlarda ifodalanganligini inobatga olgan holda, biz statistik kuzatish usuli yordamida tahlil qildik.


Tahlil va natijalar. Naqd pulsiz hisob kitoblar, masofadan toʻlovlarni amalga oshirish hamda raqamli platformalardan foydalanish aholi turmush tarzining ajralmas qismi boʻlib qoldi. Qogʻoz shaklidagi pullar tovar va xizmatlar ushun amalga oshiriladigan toʻlovlarni oʻz joyini masofaviy bank xizmatlariga boʻshatib berishda davom etmoqda. “Bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, yangi axborot texnologiyalarning joriy etilishi, birinchidan, odamlar hayotidagi oʻzgarishlar, ikkinchidan, bank operatsiyalarining avtomatlashtirilganligi bilan bogʻlik. Mohiyatan bank va mijoz urtasidagi aloqaning anʼanaviy va masofadan tashkil etilishi oʻrtasida keskin farq mavjud emas. Bank mijozlariga xizmat koʻrsatish kerakligi saqlanib qolingan, faqatgina bank va mijozlarini oʻzaro bogʻlaydigan aloqa kanali oʻzgardi. Yaʼni, faqat bank mijozlari bankka borib bajaradigan operatsiyalarini endilikda masofadan ham amalga oshirish imkoni mavjud boʻldi”³.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020 - 2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>.

² Karimova A.M., Tursunov F.M. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. Dekabr 2023 y. 93 b.


³ Mamadiyarov Z.T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishga taʼsir kilduvchi omillar taxlili // «Iqtisodiyot va taʼlim» ilmiy jurnali. - Toshkent, 2019. - №1. yanvar-fevral. -71-77 b.

Hozirgi kunda bank tizimida “Raqamli bank” va “Virtual bank” atamaları ko‘p uchramoqda va ular “Masofaviy bank xizmati” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Quyida ushbu atamalarning “Masofaviy bank xizmati” tushunchasi bilan bog‘liqligini chizma ko‘rinishida ko‘rib chiqamiz(1-rasmga qarang).



1-rasm. “Raqamli bank” va “Masofaviy bank xizmati” tushunshasining o‘zaro bog‘liqligi¹

Raqamli yoki onlayn bank odatiy holda bevosita klassik ofisga ega bo‘lmagan tizim hisoblanib, telefon, smartfon, planshet va turlicha zamonaviy gadjetlar hamda internet orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatadigan zamonaviy bank deb tushuniladi. Agar har qanday klassik bank o‘zining har xil ofislarida mijozlarga klassik xizmat ko‘rsatish orqali ma‘lum bir bank xizmatlarini masofadan amalga oshirsa, onlayn bank nodatiy ravishda mijozlarga masofadan xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan hisoblanadi. Shuni aytish lozimki, mijozlarning masofaviy bank xizmatlariga bo‘lgan ishonsh darajasi yildan yilga oshib bormoqda. “Masofaviy bank tizimida qo‘shimsha funktsiyalarning paydo bo‘lishi ushbu tizimga turli xil qo‘shimsha moliyaviy bo‘lmagan xizmatlarni, masalan, mehmonxonani buyurtma qilish va bron qilish, turli xil transport turlariga shiptalar va boshqalarni kiritish bilan bog‘liq”². Mamlakatimiz tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishning bir neshta turlari mavjud(2-rasm).



2-rasm. Masofaviy bank xizmatlari turlari³

Raqamlashtirish sharoitida mamlakatimiz banklari mijozlarga masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatishi bank tizimi taraqqiyotining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.


¹ Internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

² Шулепина, М.В. Дистанционное банковское обслуживание: особенности развития / М.В. Шулепина // Банковские услуги. – 2016. - № 7. – С. 17-23., с. 20.

³ Karimova A.M., Tursunov F.M. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. Dekabr 2023 y. 93 b.

Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda ushbu xizmatlar tizimiga ta’sir etuvchi bir qancha omillarni hisobga olish lozim bo’ladi.

Endi esa, biz mamlakatimizdagi masofadan bank xizmatlarini ko’rsatuvchi tizimlardan foydalanuvshilar sonining o’zgarish dinamikasini ko’rib chiqamiz (3-rasm).



3-rasm. Mamlakatimizdagi masofadan bank xizmatlarini ko’rsatuvchi tizimlardan foydalanuvshilarning soni (2025-yil 1-yanvar holatiga)¹

Diagramma ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, 2020–2025-yillarda mamlakatimiz tijorat banklarini masofadan bank xizmatlarini ko’rsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchilar sonining o’sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Mamlakatimiz bank tizimida innovatsion bank xizmatini ko’rsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchilar soni jadal suratlarda oshib bormoqda. 2020-yildagi pandemiya davrida mijozlar soni 14571094 nafarga yetib, o’tgan yilga nisbatan 43,50%ga oshgan. Bunga asosiy sabab pandemiya va raqamli banklarni ochilishi hisoblanadi. 2021-yil mobaynida mijozlar soni 20203384 nafarga yetib, o’tgan yilga nisbatan 38,65%ga oshgan. Shuningdek, 2022-yil davomida mijozlar soni 30000914 nafarni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 48,49%ga oshgan bo’lib biz tahlil qilayotgan davrning eng yuqori ko’rsatkichi hisoblanadi. 2023-yilga kelib masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 44099600 nafar bo’lib, 2023-yilga nisbatan 46,99% oshganini ko’rishimiz mumkin. 2024-yilning oxirida mijozlar soni 52917166 nafar bo’lib, o’tgan yilga nisbatan 19,99%ga oshgan bo’lib, tahlil qilinayotgan davrning eng past ko’rsatkichi hisoblanadi. Buning asosiy sababi onlayn kreditlarning foiz stavkasi ko’tarilishi va kiber hujumlarning ko’payishi deb hisoblaymiz. Hozirgi davrda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni oshib bormoqda.

Xulosa va takliflar. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank sektorini zamonaviy texnologiyalar bilan transformatsiyalash amalga oshirilmoqda. Yangi texnologiyalarning rivojlanishi, aloqa vositalarining jadal suratlarda rivojlanib borishi bank tizimining ba’zi zonalarida mijozlarga masofadan xizmat ko’rsatish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- tijorat banklarning mobil ilovasini takomillashtirish va ko’proq xizmatlar turini mobil ilovada joylashtirish lozim.

- bank tizimida interaktiv mahsulotlarini sonini oshirish kerak. Masalan, pulli reklamalar, savdo komissiyasi kabi moliyaviy hamkorliklarni ilovalarda joylashtirish kerak. Har bir bank o’zining mintaqaviy ekotizimni yaratishi kerak.

- masofaviy bank tizimlarini rivojlantirishning yana bir zamonaviy tendentsiyasi - bu o’yinlashtirish(gamefikatsiya) kabi texnologiyalarni amalda joriy etishdir. Mijoz, xususan maktab

¹ O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

o‘quvchilari o‘yin ko‘rinishidagi barsha kerakli moliyaviy axborotlardan foydalanish imkoniyatiga sazovor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020 - 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебное пособие. -М.: КноРус. 2021. 358 с.

3. Жарковская, Е.П. Банковское дело: для студентов вузов по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» / Е. П. Жарковская. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Омега-Л, 2012. – 452 с

4. Корнилова Ю.А. Дистанционное банковское обслуживание: обзор предложений /Ю.А. Корнилова // Экономика современного предприятия. – 2011. – № 10 – С. 48–54.

5. Ramayah T., Course website usage among distance learning business students: the role of prior experience. International Journal of Learning 11,1507-1517. 2005.

6. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России /Экономический журнал. 2012. № 2 (26).

7. Коробова Г. Г. Банковское дело: учебник / Г. Г. Коробова, А. Ф. Рябова, Ю. И. Коробова, Р. А. Карпова. – Москва: ИД Магистр Пресс. 2016. - 751 с., с. 46.

8. Abdullaeva Sh.Z. Bank shli. Darslik.. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2017.535-540 b.

9. Toymuxamedov I., Umarov Z., Xusainov G. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lov tizimi. O‘quv qo‘llanma. T.: LESSON PRESS, 2018 y. 215-218 b.

10. Rahimova X.U. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va tulov tizimi. O‘quv qo‘llanma.. T.: Moliya. 2016.243-247 b.

11. Aliqoriyev O. Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo‘nalishlari mavzusidagi dissertasiya. Toshkent 2011 y. 55-56 b.

12. Mamadiyarov Z.T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishga ta’sir kiluvchi omillar taxlili // «Iqtisodiyot va ta’lim» ilmiy jurnali. - Toshkent, 2019. - №1. yanvar-fevral. -71-77 b.

13. Шулепина, М.В. Дистанционное банковское обслуживание: особенности развития / М.В. Шулепина // Банковские услуги. – 2016. - № 7. – С. 17-23., с. 20.

14. Karimova A.M., Tursunov F.M. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. Dekabr 2023 y. 93 b.

<p>Ф.Турсунов</p> <p>Существенные аспекты организации инновационных дистанционных банковских услуг в коммерческих банках</p> <p>Аннотация. В данной статье изучены общие понятия дистанционных банковских услуг, взгляды некоторых ученых на данную систему, роль и место данной системы в деятельности банков, основные направления, преимущества и недостатки тенденций дистанционного банковского обслуживания, некоторые проблемы, которые ставят эту систему на путь развития в ходе исследования, разработаны предложения и рекомендации с целью поиска решения этих проблем.</p> <p>Ключевые слова: дистанционные банковские услуги, онлайн-банкинг, интернет-банкинг, мобильный банкинг, sms-банкинг, банк-клиент, дибанк, чат-боты, блокчейн, цифровой банкинг.</p>	<p>F.Tursunov</p> <p>Essential aspects of the organization of innovative remote banking services in commercial banks</p> <p>Abstract. This article explores the general understanding of remote banking services, the views of some scientists about this system, the role and place of this system in banking activities, the main directions, advantages and disadvantages of remote banking service trends, some problems that hold in the course of the research, proposals and recommendations have been developed in order to find a solution to these problems.</p> <p>Keywords: remote banking services, online banking, internet banking, mobile banking, sms-banking, bank-client, dibank, chat-bots, blockchain, digital banking.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.